

**NIZOMIDDIN MAHMUDOVNING HOZIRGI ZAMON
TILSHUNOSLIGIGA OID QARASHLARI***Boshmanova Dildora**QDPI Boshlang 'ich ta'lim kafedراسi o'qituvchisi**Yigitaliyeva Muhlisaxon Ilhomjon qizi**Boshlang 'ich ta'lim fakulteti talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilshunoslik ilmi rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan atoqli olim, filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudovning ilmiy-ijodiga fikr-mulohazalar keltirildi.

Kalit so'zlar: til, madaniyat, lisoniy, nutq, lingvokulturologiya, psixolingvistika, paradigma.

Аннотация. В данной статье рассматривается творчество известного ученого, доктора филологических наук, профессора Низомиддина Махмудова, внесшего достойный вклад в развитие языкознания.

Ключ: язык, культура, лингвистический, речь, лингвокультурология, психоллингвистика, парадигма.

Abstract. This article discusses the work of the famous scientist, Doctor of Philology, Professor Nizomiddin Makhmudov, who made a worthy contribution to the development of linguistics.

Key words: language, culture, linguistic, speech, cultural linguistics, psycholinguistics, paradigm.

Ma'lumki adabiy til har qanday millatning millat ekanligini tasdiqlovchi vositadir. Hozirgi kunda tilshunoslik ilmida yangi-yangi sohalarning yuzaga kelishi, matn muammosining o'rganilishi bilan bog'lik ishlar jadal rivojlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi qator yo'nalishlar qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko'rmoqdalar. Bundan maqsad - nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o'rin tutishini aniqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, matnning semantik,

lingvomadaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishdir. Shunday masala sifatida hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e'tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'lik bo'lgan lingvomadaniy masalalari ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo'lsada, biroq to'laqonli o'z yechimini topgan emas.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi Respublikamizda davlat ishlarining, o'qish, o'qitish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o'rganish ishlari keng ko'lamda olib borilayapti. O'zbek adabiy tilining ravnaq topishida, rivojlanishida bir qator tilshunos olimlarimizning mehnati benihoya ko'pdir. O'zbek tilshunoslaridan S.Ibrohimov, E.Begmatov, B.o'rinboev, A.Rustamov, R.Qo'ng'urov, S.Karimov, A.Abduraxmonov, N.Maxmudovlarning ilmiy izlanishlari natijasida tilshunoslikka oid bir qator nazariy fikrlar aytilgan. Namlari ta'kidlab o'tilgan mualliflarning ishlaridan ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilshunosligida nazariy masalalari bo'yicha anchagina izlanishlar olib borilgan. O'zbek tilshunosligida "til va madaniyat masalalari bilan eng ko'p va xo'p shug'ullangan olim sifatida ustozimiz filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudovning bugungi kunda yaratayotgan ulkan merosi o'qituvchi va o'quvchi yoshlar uchun yaratilayotgan darsliklar va o'quv qo'llanmalarini ko'rsatish mumkin.

Keyingi davrlarda yetakchi tilshunoslarning bir qator tilshunoslikka bevosita aloqador bo'lgan maqolalari e'lon qilindi. Nizomiddin Mahmudov o'zbek tilshunosligining deyarli barcha sohalari, shuningdek, umumiy tilshunoslik va tarjimashunoslik bo'yicha qalam tebratib kelayotgan o'ta faol, sermahsul va serqirra olimdir. U nafaqat o'zbek tilshunosligining ilmiy-nazariy masalalari, tilning ijtimoiy mohiyati va vazifalari, balki uning amaliy masalalarini ham sinchkovlik bilan tadqiq va tahlil qilib kelmoqda. Lingvokulturologiyaga oid

dastlabki o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratildi. Professor N.Mahmudovning “O‘xshatishlar - obrazli tafakkur mahsuli” nomli maqolasi o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlarning til va nutqqa munosabati tayin etilganligi, shuningdek, ularning "milliy obrazli tafakkur tarzini namoyon etadigan birliklar" sifatida ta’riflanib, bu kabi obrazli birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish muammosi qo‘yilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. N.Mahmudov bu boradagi fikrlarini "O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lugati"ga yozgan so‘zboshisida yanada chuqurlashtirdi. Olimning "Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab..." nomli maqolasida esa lingvokulturologiya, umuman, antroposentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Maqolada lingvokulturologiya nazariyasining shakllanishi uchun sabab bo‘lgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar xaqida juda asosli muloxazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni soxaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va madaniyat haqida shunday yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo kursatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma’nosi “aqliy-ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui demakdir. Shunday bo‘lgach, nutq madaniyatining o‘rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o‘rganish ob’ekti tamoman boshqadir”.¹ Nizomiddin Mahmudov tilga ehtirom ko‘rsatish va unga e’tibor berishni ta’kidlab shunday deydi: “Til benihoya muqaddas va mo‘tabar ne’mat, u odam degan mavjudotga

¹ Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2012. – B.10.

shakllantirilgan, qavmlar o'laroq birlashtirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomilga boshlagan, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan bemisl bir robitadir. Shuning uchun ham tilga nopisandlik insoniyatning o'zligiga nopisandlik demakdir. Tilga ehtirom va e'tibor esa bu dunyoda inson bolasi muhtaramligining e'tirofidir". Vilgelm fon Gumboldning "Tilda xalq ruhi aks etadi" degan fikri N.Mahmudovning asarlarida o'ziga xos tarzda davom ettirilganini ko'rish mumkin: "...tilda xalqning urf-odati, yashash tarzi, iqtisodiy ahvoli, qisqasi, xalqning borbudi, bo'y-basti aks etadi. Muayyan xalqning tilini bilish uning butun borlig'ini anglash demakdir. Muayyan xalq tilining mazmun mohiyatini idrok etish shu xalqning tarixi-yu kelajagini idrok etish demakdir. Til xalqning bebaho va muqaddas boyligidir, xalqning har bir asl farzandi o'z tilida sobit va o'z tiliga sodiq bo'lmog'i azal-abad ham qarz, ham farz"².

Tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov o'qituvchi nutqi va madaniyatiga shunday fikr bildirgan: "Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o'quv fanlari ham bilvosita shug'ullanishi kerak. Matematika bo'ladimi, fizika yoki tarix bo'ladimi, o'qituvchi o'z nutqiy madaniyati bilan namuna ko'rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo'l bilan o'quvchidagi so'z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Talim amaliyotida ko'rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o'qituvchi juda ko'p vaqtini turli ko'rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma'qul, ammo, unutmazlik kerakki, nutqiy madaniyatni o'rgatish, chiroyli so'z zavqini o'stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko'rgazmali qurol o'qituvchining o'zidir".

Ona tilimizning mukammal talqinini yaratishda yuqoridagi kabi lingvokulturologik tahlil tamoyillarini yanada kengaytirish, ulardan samarali foydalanish bugungi o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri

² Mahmudov N. Til. – T., Yozuvchi, 1998. – B. 3.

hisoblanadi. Zero, til va madaniyat ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan axborotni saqlash, avloddan avlodga uzatish, madaniyatlararo muloqotni yuzaga keltirish va uni rivojlantirish xususiyatiga ega bo'lgan noyob hodisadir. Bunda u ham madaniyat mahsuli, ham uning mavjudligining asosiy sharti sifatida madaniyat qiyofasini belgilovchi, omil vazifasini bajaradi. Shu boisdan ham o'zbek tili tizimi dunyo tilshunosliklarida yetakchi paradigmalardan biri hisoblangan antropotsentrizm asosida tadqiq etilishi lozim. Bu o'zbek tilshunosligi rivojining yanada yuqori pog'onaga ko'tarishi bilan birga tilimizning jamiyat, madaniyat, milliy mentalitet va ruhiyat bilan uzviylikini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Professor Nizomiddin Mahmudovning umumiy tilshunoslik, psixolingvistika, leksikografiya, grammatika va fonologiya rivojlanishiga qo'shgan hissasi juda katta. N.Mahmudov tilning barcha bosqichlarida ilg'or lingvistik nazariyalarni shakllantirib rivojlantirdi. Shuni aytishimiz lozimki, uning ilmiy va pedagogik faoliyati bir birini boyitib, o'zi ishlab chiqargan kontseptsiyalarni hayotga tadbiq eta oldi. N.Mahmudovning pedagogik fikri uning ilmiy muvaffaqiyatlariga muvofiq shakllangan. Olimning qator metodik g'oyalari ona tilini o'qish va o'qitish metodikasi uchun asosiy ishlardan biri bo'ldi desak adashmaymiz. N.Mahmudovning ilmiy asarlarining o'ziga xosligi, ona tili fanini o'rganuvchilar uchun tavsiyalar shakllantirilishidadir. N.Mahmudov iqtidorli tashkilotchiligi sababli, amalda ko'plab ta'lim va ma'rifiy loyihalarni amalga oshirgan. Olimning ilmiy asarlari, darsliklari bugungi kunda katta ahamiyatga ega.

N.Mahmudov o'zbek leksikografiyasi rivojiga munosib hissa qo'shgan sermahsul olim bo'lib, uning ishtirokida yaratilgan lug'atlar bir-birini takrorlamaydigan, original lug'atlardir. N.Mahmudov va taniqli filolog B.To'xliyev bilan hamkorlikda yaratgan "O'zbek tilini o'rganamiz . rasmi lug'at" qo'llanmasi mamlakatimiz aholisining o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini turli darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar, so'zlashgichlar, ikki tilli

lugʻatlar va boshqalarni nashr etish yoʻli bilan qoʻllab-quvvatlash zarurati mahsulidir. “Oʻzbek tilini oʻrganamiz . rasmi lugʻat” qoʻllanmasi oʻzbek tilini oʻrganishning boshlangʻich davrida yordam beradi. Ushbu qoʻllanma mualliflari oʻzbek tilidagi ayrim soʻz va soʻz birikmalarining lugʻaviy maʼnolarini ochishda lugʻat va rasmlardan foydalanganlar. Unda keltirilgan 1300 soʻzdan 830 tasi bevosita rasmlar orqali izohlangan. Ular asosan ot, sifat, son, feʼl soʻz turkumlariga oid. Oʻzbekcha soʻzlarning koʻpchilikka yaxshi maʼlum boʻlgan mavzuiy guruhlariga ajratib berilishi ularning turli birikma gaplarda faol qoʻllanishiga imkoniyat yaratgan.

Izohli lugʻat tuzish, ayniqsa kichik yoshdagi bolalar uchun lugʻat tuzish oʻta murakkab jarayondir. Nizomiddin Mahmudovning “Soʻz sandiqchasi” deb nomlangan izohli lugʻatchasi oʻzbek tilshunosligida bolalar uchun yaratilgan ilk original izohli lugʻatdir. Bu lugʻat shunchaki kata lugʻatlardan soʻz tanlab olib, alifbo tartibiga solishdan iborat emas. Bunda bolaning tabiati, u ishlatishi mumkin boʻlgan soʻz va iboralardan yaxshi xabardor boʻlmoq kerak. N.Mahmudov boshlangʻich sinf oʻquvchilariga izohli lugʻatcha yaratishda ana shu talablarga qatʼiy rioya qilgan va lugʻatga bolalarbop 700 taga yaqin soʻz va iborani tanlab olib, ularni bolalar uchun tushunarli tarzda izohlagan. Lugʻatchadagi soʻz va iboralarning izohlarini kata izohli lugʻatdagi ayni soʻz va iboralar izohi bilan solishtirish muallifning soʻzlarni izohlash masalasida naqadar katta ishni amalga oshirganini koʻrsatadi. Lugʻatchadagi soʻzlar izohiga daliliy misollar keltirishda ham oʻziga xos yoʻl tutib, misollarni faqat oʻzbek bolalar adabiyotidan yaʼni Ilyos Muslim, Zafar Diyor, Poʻlat Moʻmin, Xudoyberdi Toʻxtaboyev, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Safar barnoyev va Dilshod Rajablarning maqol, matal, ertak, topishmoq kabi folklor janrlaridan, bolalar uchun nashr etiladigan gazeta va jurnallardan saralab olgan. Daliliy misollarning barchasi tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Muallif lug‘atchada ko‘plab so‘zlar izohidan so‘ng zidi belgisi ostida tegishli so‘zning antonimlarini qora harflar bilan ajratib ko‘rsatadi. Masalan, mag‘lub - g‘olib; mard – nomard, qo‘rqoq kabi. Ma‘nodoshi belgisi ostida esa uning sinonimlarini ajratib ko‘rsatadi. M: qiyin – mushkul; raqib – dushman, yov kabi. Bu narsa, birinchidan, o‘quvchini muayyan so‘z haqida atroflicha fikrlashga o‘rgatsa, ikkinchidan, undagi so‘z boyligini yanada orttirishga xizmat qiladi. Mavjud ehtiyojlar tufayli lug‘atcha 2020-yilda 10000 nusxada qayta nashr etildi. Ushbu lug‘atcha o‘zbek lug‘atchiligidagi ilk tajriba bo‘lib, u bolalar nutqini o‘stirishda, lug‘at boyligini orttirishda, eng asosiysi ta‘lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Kitob boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan asosiy manbalardan biri desak adashmagan bo‘lamiz. Aynan shu boy xazina o‘rganilsa, til burrolashadi, zehn o‘tkirlashadi. Aynan bolalarga mos ruh va shaklda tayyorlangan lug‘at yurtimiz yoshlarining o‘zbek tilida bilmaganini bilishi, o‘rganishiga xizmat qiladi. Shu tariqa bolada sog‘lom til tuyg‘usi, nozik so‘z sezgisi, go‘zal va ta‘sirli nutq zavqi shakllanadi va asta-sekin kamol topib boradi. Dunyo lug‘atchiligi tajribasida (rus, turk, ingliz va boshqa) aynan bolalarbop bunday izohli lug‘atlar tuzish an‘anasi ko‘pdan beri mavjud bo‘lsa-da, mazkur lug‘at o‘zbek tilidagi dastlabki ish bo‘ldi. Bu kitobda o‘zgacha bir ramziy ma‘no bor. Turli millat va elat vakillari yashaydigan, turli tillarda so‘zlashadigan yurtdoshlarimizga o‘zbek tilini chuqur o‘rganishi uchun bu kitob asosiy manba bo‘la oladi. Yurtimizda yettita tilda ta‘lim beriladi. Ana shunday ta‘lim muassasalarida o‘zbek tili soatlari ko‘paytirilgan. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ishlar o‘zbek tili nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Nizomiddin Mahmudov o‘zbek tili taraqqiyotiga o‘zbekona ilmiy qarashlar bilan boyitdi, uni yanada takomillashtirdi. A.Nurmonov haqli tarzda e‘tirof etganlaridek, N.Mahmudov “hech qanday baqiriq-chaqiriqlarsiz, ayyuhannos solmasdan, o‘zidan oldingi tilshunoslar qoldirgan ilmiy

merosga hurmat bilan yondashgan holda, o‘zbek tilining boshqa sistemadagi tillardan farq qiladigan o‘ziga xos ichki tomonlarini ishonarli dalillar asosida yoritib berishda o‘ziga xos yo‘ldan borib, havas qilishga arzigulik katta muvaffaqiyatlarga erishdi va haqli ravishda o‘zbek tilshunosligining ustuniga aylandi”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2012. – B.10.
2. Mahmudov N. Til. – T., Yozuvchi, 1998. – B. 3.
3. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. T., 1975. 54-b.
4. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – T.: Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona, 2007.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. O‘n to‘rtinchi tom. – T.: Fan, 1998. – B.94.
6. **Boshmanova Dildora Mahramovna** “Mo Yan- representative of hallucinatory Realism” INTERNATIONAL JOURNAL ON ORANGE TECHNOLOGIES www.journalsresearchparks.org/index.php/IJOT e- ISSN: 2615-8140|p-ISSN: 2615-7071 Volume: 03 Issue: 03 | March 2021
7. Kamolaxon Oripova Erkinjon qizi “Ingliz tilidagi antonimlarning badiiy matndagi roli” Oriental Art and Culture Scientific-Methodical Journal, Volume 3 Issue 1 March 2022
8. Nurmonov A. Shakl va mazmun munosabati lingvistik tadqiqotlar asosi//
9. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3-jild. – T., 2012, b.225
10. K.E. Oripova “Basic concepts and principles of linguoculturology” International Engineering Journal For Research & Development Vol.6 Issue3 <http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/2074>